ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI



13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

№8
2025

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 68 sahifa,
1-avgust, 2025-yil.

**BOSH MUHARRIR:**
**Karimova E'zoza Gapirjanovna –** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirli

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

*TAHRIRIYAT KENGASHI A`ZOLARI*
***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)***
***Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
*Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent*
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
***G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Doniyorov S. M. –"Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori***
***Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***
***Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari***
***Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**
**Karimova E'zoza Gapirzhanovna –** Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
*Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor*
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
**Mizayeva F. O.** – **Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics***
***Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology***
***Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

# MUNDARIJA

Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori modeli:
tizimli boshqaruv yondashuvi asosida shakllanishi....14
Abdullayeva Nafisa Shavkatovna, Maraimova Muxtabar Pulatovna

O'smirlardagi nevroz holatining psixologik xususiyatlari....20
Abduraximov Doniyor Abdusaid o'g'li

Ta'lim siyosati va o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi:
xalqaro tajriba va o'zbekistonda amaliyot taqqoslamasi....25
Ahadova Mushtariybonu Akmal qizi

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini
rivojlantirishning hozirgi holati va o'ziga xosligi ....30
Beknazarova Muxlisa O'tkir qizi

Ta'lim sifatini oshirishda "Barkamol avlod" bolalar maktablarining zarurati va ahamiyati ....33
Eshmuminova Oybarchin Botirovna

Bolalarda nutq kamchiliklari: etiologiya, rivojlanish dinamikasi va erta aralashuv....39
Isayeva Mushtariy Alisher qizi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kitobxonlikka o'rgatish usullari ....44
Maydonova Saboxat Sadulloyevna

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik vositasida badiiy adabiyot namunalariga qiziqishni
shakllantirishning o'ziga xos jihatlari....48
Mingbayeva Barno Ubaydullayevna

Pedagogical Characteristics in Enhancing Speaking Skills of Esp Learners
in English Language Classes Through Digital Technologies....52
Pardayeva Zulaykho Yusubjonovna

Nutq buzishlarida uchraydigan idrok jarayonining o'ziga xos xususiyatlari ....55
Ruziyeva Guzal Shuxrat qizi

"Biologik savodxonlik" tushunchasi zamonaviy ta'lim paradigmasi kontekstida ....59
Umaraliyeva Mamura Tashxodjayevna

O'qituvchi faoliyatida kasbiy madaniyatning o'rni ....65
Umarova Feruzabonu Bobir qizi

# BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA KITOBXONLIK VOSITASIDA BADIIY ADABIYOT NAMUNALARIGA QIZIQISHNI SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Mingbayeva Barno Ubaydullayevna
PROFI universitetining "Boshlang'ich ta'lim"
kafedrasi v.b. dotsenti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik vositasida badiiy adabiyot namunalariga qiziqishni shakllantirishning o'ziga xos jihatlari yoritilgan. Mazkur jarayonning pedagogik, psixologik va metodik asoslari, shuningdek, o'quvchilarning emotsional faolligi, intellektual rivojlanishi va o'qish motivlari bilan bog'liq omillar tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** kitobxonlik, badiiy adabiyot namunalari, qiziqish, dinamik rivojlanish, intellektual rivojlanish, emotsional faollik, o'qish motivlari, ehtiyoj.

**Abstract:** This article discusses the specific features of developing interest in samples of fiction through reading among primary school students. It highlights the pedagogical and psychological foundations of the process, as well as factors related to students' emotional activity, intellectual development, and reading motivation.

**Key words:** reading, samples of fiction, interest, dynamic development, intellectual development, emotional activity, reading motivation, need.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются особенности формирования интереса к образцам художественной литературы через чтение у учащихся начальных классов. Освещены педагогические и психологические основы процесса, а также такие факторы, как эмоциональная активность, интеллектуальное развитие и мотивация к чтению.

**Ключевые слова:** чтение, образцы художественной литературы, интерес, динамическое развитие, интеллектуальное развитие, эмоциональная активность, мотивация к чтению, потребность.

## KIRISH

Bugungi kunda shaxs imkoniyatlarini kengaytirishning ko'plab yo'nalishlari va vositalari mavjud. Bunday vositalar birinchi navbatda har bir insonning bilish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Kitob va kitobxonlikka bo'lgan qiziqish shaxs faoliyatining samarali kechishini ta'minlaydi. Shuning uchun ham kitobxonlik vositasida o'quvchilarda badiiy adabiyotga nisbatan qiziqishni shakllantirish alohida ahamiyatga ega.

Pedagogika ensiklopediyasida "Qiziqish – 1) obyekt yoki hodisani anglash va biror faoliyat turini o'zlashtirishga moyillik; 2) o'quvchi yoki talabaning o'zi uchun qimmatli va yoqimli bo'lgan muayyan narsa va hodisaga munosabati" sifatida ta'rif berilgan.

Qiziqishlarda shaxsning o'ziga xos xususiyatlari mujassamlashgan bo'ladi. Qiziqish bilimlarni ongli, puxta, barqaror, anglagan holda o'zlashtirishga ko'maklashadi. Qiziqish insonda intilish, faollik, ichki turtki, ehtiyojni shakllantirishga xizmat qiladi. Qiziqish shaxsning borliqqa tanlab munosabatda bo'lishi, o'ziga xos qaror qabul qilishi, o'zini o'zi nazorat eta bilishi, maqsadga intiluvchanligida, yuzaga kelgan to'siqlarni yengishida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham o'quvchilarda boshlang'ich sinflardan boshlab u yoki bu hodisaga nisbatan qiziqish uyg'otish alohida ahamiyatga ega. Qiziqish tufayli o'quvchilar muayyan obyektni chuqurroq o'zlashtirishga intiladilar. U haqidagi bilimlarni alohida intilish bilan o'zlashtirishga kirishadilar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida badiiy adabiyotga qiziqish uyg'otish orqali insoniyat aql–idrokining nodir namunalarida ifodalangan bilimlar va hayotiy tajribalarni o'rganishlariga kengroq sharoit yaratiladi. O'quvchilarda badiiy adabiyotga nisbatan qiziqish uyg'otishda kitobxonlik asosiy vosita sifatida xizmat qiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

R. G. Safarovaning fikricha, o'quvchilarda badiiy adabiyotga qiziqish uyg'otishda ta'lim jarayoni asosiy o'rin egallaydi. Ta'lim jarayoni oldiga shaxsni har tomonlama uyg'un rivojlantirish vazifasi qo'yilgan bugungi kunda o'quvchilarda kitoblar yordamida badiiy adabiyotga qiziqish uyg'otish ijtimoiy–pedagogik zaruriyatga aylanmoqda. Kitob o'qish orqali o'quvchilar o'z bilimlarini muntazam takomillashtirishga muvaffaq bo'ladilar. Axborot texnologiyalari va axborot olish manbalarining ko'payganligi tufayli o'quvchilar kitobga tobora kamroq murojaat qilmoqdalar. O'quvchilar bilan o'zaro munosabatga kirishishning dastlabki kunlaridan boshlab o'qituvchilar ularda badiiy adabiyotga nisbatan qiziqish uyg'otishlari lozim. Aynan boshlang'ich sinflarda badiiy adabiyotga nisbatan o'quvchilarda shakllangan qiziqishlar barqaror bo'lib, butun hayoti davomida mustahkamlanib boradi.

O'quvchilarda badiiy adabiyotga qiziqish uyg'otish g'oyasining asoschisi buyuk chex pedagogi Ya. A. Komenskiy hisoblanadi. U o'zining "Buyuk didaktika" asarida o'quvchilarda u yoki bu mashg'ulotga nisbatan qiziqish uyg'otish haqida fikr yuritgan.

Qiziqish – bilish ehtiyojlarining namoyon bo'lish shaklidir. U shaxsni o'z faoliyati maqsadini anglashga yo'naltiradi. Obyektiv borliqni ifodalaydigan dalillarning mohiyatini chuqurroq anglashga undaydi. Qiziqish shaxsning o'rganilayotgan obyektni o'zlashtirishga bo'lgan intilishini ifodalaydi. O'quvchining ayni bir qiziqishini qondirish ikkinchi qiziqishning vujudga kelishiga asos bo'lib, bilish faoliyatining rivojlanishiga sharoit yaratadi.

L. S. Vigotskiyning ta'biricha, qiziqishlar bola xulq–atvorining harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. U o'quvchi intilishlarining yorqin ifodasidir. Qiziqishlar yordamida o'quvchilarning faoliyati ularning ehtiyojlariga muvofiq keladi. Shuning uchun ham ta'lim–tarbiya jarayoni o'quvchilarning qiziqishlariga asoslangan holda tashkil etilishi kerak. Bu o'quv jarayonining o'quvchilarni qiziqtirgan o'quv predmetlariga ustuvorlik berish asosida tashkil etilishini anglatadi. O'quvchiga bosim o'tkazish, po'pisa qilish, qo'rqitish orqali uni muayyan hodisani o'rganishga jalb etish mumkin emas. O'quvchilarda qiziqish uyg'otish bilan bir qatorda uni muayyan maqsadga yo'naltirish ham muhim ahamiyatga ega.

O. A. To'raqulovaning fikricha, o'quvchilarda bilishga oid qiziqishlarni shakllantirish o'qituvchi zimmasidagi murakkab vazifalardan hisoblanadi. Buning uchun pedagog o'quv jarayonini o'quvchilarda bilish qiziqishlarini shakllantirishga yo'naltirgan holda tashkil etishi lozim. Bu jarayonda o'quvchi muntazam tarzda o'quv materiallariga qiziqishi, o'z–o'zini rivojlantirishi, o'zlashtirgan bilimlarining yo'nalishi va sohalarini kengaytirishi maqsadga muvofiq. O'quvchilar o'quv jarayonida tug'ilgan muammolarni yechishga o'z shaxsiy hissalarini qo'shishlari ham muhim ahamiyatga ega.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'quvchilar uchun bilishga oid qiziqishlar o'qish motivlari sifatida ularni mazkur obyektlarni bilishga undaydi. Mazkur o'rinda o'qituvchilar ularga to'sqinlik qila olmaydilar, chunki bu o'quvchilarning shaxsiy qiziqishlari bilan bog'liq. Bu o'quvchilar faoliyatining asosiy maqsadini ifodalab, o'quv jarayonining oson, samarali, yorqin, hissiyotlarga boy bo'lishini ta'minlab, ularning darslarda toliqmasliklariga asos yaratadi. Bilishga oid qiziqishlar o'quv faoliyatining turli mayllari bilan o'zaro aloqador bo'lib, o'quvchi dunyoqarashini har tomonlama boyitishga ko'maklashadi. Ushbu qiziqishlar bir–biriga mos kelmasa, o'quvchilarning rivojlanish jarayonlari sekin kechadi. O'quvchilarda muayyan hodisalarga nisbatan qiziqishning shakllanishi natijasida ularda o'quv jarayoniga nisbatan ongli munosabat hosil bo'ladi.

Ushbu maqsadga erishish uchun o'qituvchi pedagogik jarayonda vujudga keladigan ko'plab muammolarni bartaraf etishi, darsni tashkil etishning eng yaxshi usullarini tanlashi talab etiladi. Buning uchun o'qituvchi zarur o'quv materiallarini tanlaydi, o'quvchilarda mustaqillikni shakllantirishga oid turli yondashuvlarni tahlil qiladi, ta'lim maqsadiga erishilganlik natijasini aniqlaydi.

O'quvchilarning qiziqishlarini qondirish nafaqat ularning intellektual sohalarini boyitish, balki ularni kelajakdagi faoliyatga yo'naltirish imkoniyatiga ham ega.

O'quvchilarning bilishga oid qiziqishlarini rivojlantirish sohasida quyidagi darajalarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- sinchkovlik
- qiziquvchanlik
- shaxsiy bilishga asoslangan qiziqish
- ijodiy qiziqish.

Ular o'quvchilarning u yoki bu o'quv predmetiga nisbatan turli–tuman qiziqishlarini ifodalaydi. Hali o'rganilmagan bilimlarni o'rganishga intilish, yangi axborotlarni o'zlashtirish kabilar shular jumlasidandir.

Sinchkovlik – bilishga asoslangan qiziqishning dastlabki bosqichi hisoblanadi. Bunda o'quvchining e'tibori bilan bog'liq tarzda uning muayyan narsalarni o'rganishga, bilishga bo'lgan intilishi ifodalanadi. Qiziqishning ushbu bosqichida muayyan obyekt yoki hodisa chuqur o'rganilmaydi, balki unga sinchkovlik bilan nazar tashlanadi. Bunda shaxs o'zini o'rab turgan voqelikda qanday o'zgarishlar ro'y berganligini sinchkovlik bilan o'rganishga kirishadi va unga munosib javob qaytaradi.

Bu bosqichdagi qiziqishlar muntazam emas, balki elementar xarakterga ega bo'lib, asoslanmagan vaziyatga bog'liq holda vujudga keladi. Bu holat ayniqsa o'quvchilar maktabga kelgan dastlabki kunlarda kuzatiladi. O'quvchilardagi bunday kuzatishlar atrofdagi ayrim narsalarga bog'liq bo'lib, yuzaki xarakter kasb etadi. 3–4–sinf o'quvchilari esa atrofdagi narsalarga qiziquvchanlik bilan munosabatga kirishadilar.

Qiziqishning qiziquvchanlikka asoslangan bosqichi yangicha mohiyat kasb etib, uni qiziqtirgan hodisalar va narsalarning barcha o'ziga xos jihatlarini aniqlashga bo'lgan intilish kuchayadi. Ushbu jarayonda bilish maqsadga yo'naltirilganlik xarakteriga ega bo'lib, o'quvchilarning intilishlariga tashqi omillar ta'sir ko'rsatadi. Qiziquvchanlik bosqichida o'quvchilarda bevosita qiziqishga bo'lgan intilishning shakllanganligini kuzatish mumkin. Bunda o'quvchi bilish jarayoniga to'liq jalb etiladi. Uning yordamida esa o'zining bilish ehtiyojlarini qondiradi. Bunday faoliyatning natijasi o'quvchi uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Natijada o'quvchi o'zi qiziqqan sohani chuqurroq o'rganishga kirishadi, bir nuqtada to'xtab qolmaydi. Qiziquvchanlik esa shaxsiy qiziqishga aylanadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Bilishga asoslangan qiziqish sabab–oqibat bog'lanishlarini shakllantirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Natijada o'quvchilar mazkur bog'lanishning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga harakat qila boshlaydilar. Ushbu bosqichda o'quvchilar oldiga muayyan muammolar qo'yiladi. O'quvchilar esa ushbu muammolarga ongli tarzda yechim topishga intiladilar. Bilishga asoslangan qiziqishlar o'quvchilarni bilmaslikdan uzoqlashtiradi. Obyektiv borliqning yangi jihatlarini anglash, intellektual rivojlanishning yangi bosqichlariga ko'tarilishlarini ta'minlaydi. Natijada o'quvchilarning faol harakatlari ta'minlanadi: o'z–o'zini nazorat qilish, iroda kuchiga ishonish, ish jarayonida tashabbuskorlik va nekbinlik, o'z–o'zini takomillashtirish va rivojlantirish istagiga egalikning namoyon bo'lishi.

Ijodiy qiziqishlarning namoyon bo'lish bosqichi quyidagilarni o'z ichiga oladi: mustaqillik, o'quvchining qayta shakllangan faoliyati, o'z oldilarida turgan muammolarning yangicha yechimlarini ta'minlovchi usullarni qo'llash, o'z ijodiy layoqatlarini namoyon qilish kabilar.

Kitobxonlikka bo'lgan qiziqish – o'quvchilarning kitoblarda ifodalangan ajdodlar tajribasini o'rganish va o'z faoliyatida qo'llashga bo'lgan intilishini ifodalovchi qiziqishdir. Buning uchun o'quvchilarda aqliy hamda emotsional faollik shakllanishi lozim. Aqliy hamda emotsional faollik kitoblarda maqsadga yo'naltirilgan asosiy komponent sifatida namoyon bo'lib, o'quvchilarga ijtimoiy tajribani taqdim etishga xizmat qiladi. Chunki kitoblarda ushbu tajriba saqlanib, ajdodlardan avlodlarga taqdim etiladi. Shunga ko'ra, bilishga asoslangan qiziqishlar tanlovga asoslangan qiziqish bo'lib, birinchi navbatda o'quvchilarning intellektual sohasini rivojlantirishga ko'maklashadi. Qiziqish yordamida o'quvchilar muayyan sohadagi bilimlarni o'zlashtirishga faol kirishadilar. Bunda ularga kitob yaqindan yordam beradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagilarni sarhisob qilar ekanmiz, shaxsning rivojlanishi uchun bilishga oid qiziqishlarning ahamiyati shundaki, unda muayyan sohadagi faoliyat qiziqish ta'sirida o'quvchining ruhiy jarayonlarini faollashtiradi. O'quvchilarda intellektual qoniqish va hissiy ko'tarinkilik bag'ishlaydi. Bilishga oid qiziqishlar shaxs faolligini ta'minlovchi motiv bo'lib, uning bilish faoliyati rivojlanishiga ko'maklashadi.

Boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalaridan biri – o'quvchilarda kitobxonlik vositasida badiiy adabiyotga qiziqishni shakllantirishdan iborat. Bu muhim masalalardan biri bo'lib, kitoblar va kitobxonlik o'quvchilarga ta'lim–tarbiya berish va ularni rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**


1. Pedagogika ensiklopediyasi. III jild. Jamoa // Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 424 b.
2. Safarova R. G. va b. O'quvchi–yoshlarda "ommaviy madaniyat"ga qarshi kurashchanlik ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik–psixologik mexanizmlari. // Monografiya. – T.: "Tafakkur qanoti" nashriyoti, 2018–yil. – 192 b.
3. Коменский Я. А. https://ru.wikipedia.org/wiki/Коменский,_Ян_Амос
4. Выготский Л. С. https://ru.wikipedia.org/wiki/Выготский_Лев_Семёнович

5. To'raqulova O. A. Adabiy ta'lim jarayonida akademik litsey o'quvchilarida mutolaa madaniyatini rivojlantirish texnologiyasi: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy). ...diss. – Toshkent, 2020. – 174 b.
6. Maxmutazimova Y. (2025). The Role of the Kindergarten Teacher in the Formation of the Child Personality. Journal of Multidisciplinary Sciences and Innovations, 1(1), 546–548.
7. Raxmatovna M. Y. (2025). The Importance of Developing Technical Creativity and Engineering Skills in Preschool Children. Shokh Library.
8. Maxmutazimova Y. (2025). Maktabgacha yoshdagi bolalarni kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda STEAM texnologiyasidan foydalanish. Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali, 3(1).

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha) |
| 13.00.07 | Ta'limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2025. №8**



© Materiallar koʻchirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C–5669363 reyestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan.

**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani 19-mavze, 17-uy.